

ADABIY JARAYONLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Yusupova Marvarid Hamza qizi

1-O‘TA-24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249116>

Annotatsiya. Maqolada adabiyotshunoslik va undagi yondashuvlarning zamonaviy ko‘rinishlari haqida so‘z boradi. Adabiyotshunoslikda mavjud ushbu metodlar fanni chuqurroq o‘rganish va bu bilimlarni tadbiq eta olish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: strukturaviy, semiotik, psixoanalitik yondashuvlar, motiv, korpus lingvistika.

Аннотация. В статье говорится о современных взглядах на литературоведение и его подходах. Эти методы, имеющиеся в литературоведении, позволяют глубже изучить науку и получить возможность применить эти знания.

Ключевые слова: структурный, семиотический, психоаналитический подходы, мотив, корпусная лингвистика.

Abstract. The article talks about modern views of literary studies and its approaches. These methods available in literary studies allow for a deeper study of science and the ability to apply this knowledge.

Keywords: structural, semiotic, psychoanalytic approaches, motive, corpus linguistics.

Adabiyotshunoslik fanining bugungi rivojlanish bosqichi global ilmiy jarayonlar, yangi metodologik paradigmalarining kirib kelishi va tahlil usullarining zamonaviylashuvi bilan belgilanadi. XXI asr adabiyotshunosligida matnni o‘rganishda an‘naviy formalistik yoki tarixiy-uslubiy yondashuvlar bilan bir qatorda intertekstual tahlil, strukturalizm, poststrukturalizm, sotsiokultural, kognitiv, gender va diskurs tahlili kabi zamonaviy yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yangicha qarashlar adabiy jarayonlarni nafaqat badiiy matn darajasida, balki ularning ijtimoiy, madaniy va psixologik ildizlarini ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur yo‘nalishda xalqaro miqyosda M. Baxtin (dialogizm va polifoniya nazariyasi), R. Bart (matn nazariyasi, muallifning “o‘limi”), M. Fuko (diskurs tahlili), Y. Lotman (semiotika maktabi), X. Bloom (intertekstual qarashlar) kabi olimlar alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek adabiyotshunosligida esa N. Mallayev, I. Haqqul, U. Normatov, B. Qosimov, S. Mamajonov, D. Quronov, A. Rasulov kabi olimlar zamonaviy nazariy qarashlarni milliy adabiyot namunalari tahliliga tatbiq etib, ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ayniqsa, mustaqillik davrida adabiy jarayonlarni yangicha, innovatsion metodlar orqali tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyotni, uning mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, paydo bo‘lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy funksiyasi, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. U bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bo‘limni: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidni o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikning ildizi maqol, qo‘shiq, doston singari xalq og‘zaki ijodi namunalari yuzasidan bildirilgan ilk mulohazalarga borib boglanadi. Bundan tashqari shoir ijodiy merosi va shaxsiyatini o‘rganish ham adabiyotshunoslikda ma‘lum o‘rin egallaydi. Bugungi globalashuv, raqamli texnologiyalar davrida bu fan ham boshqa fanlar singari zamonaviy qarashlar va metodik yondashuvlar asosida

rivojlanmoqda. Adabiyotshunoslikda bir qancha zamonviy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ma'lum maqsadga muvofiq ish ko'radi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarni faqat mazmun emas, balki tuzilma sifatida ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Strukturaviy yondashuv matnning ichki qonuniyatlari, obrazlar tizimi va syujet konstruksiyasini tahlil qiladi. Semiotik yondashuvda esa badiiy belgilar, ramzlar ma'nosini ochib beradi. Qiyosiy adabiyotshunoslik hozirgi davrda eng dolzarb metodlardan biridir. Turli xalqlar adabiyotini, ularning o'zaro aloqalarini, ta'sirlarini, umumiy motiv va obrazlarini qiyosiy o'rganish adabiy jarayonni kengroq anglashga xizmat qiladi. Badiiy asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ongi, orzu-istaklari, tushlari va psixologik jarayonlari psixoxanalitik yondashuvga xos jihatlarlardan biri. Bu yondashuv yozuvchi shaxsiyatining ichki dunyosini ham tahlil qilish imkonini beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida adabiy matnlarni elektron shaklda saqlash, tahlil qilish, korpus lingvistikasidan foydalanish — hozirgi zamon adabiyotshunosligining yangi yondashuvlaridan biridir. Ushbu yondashuvlarning barchasi adabiyot sohasining zamonaviy jihatdan chuqurroq o'rganishda qo'l keladigan metodlardir

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda adabiyotshunoslik faqat matnni tahlil qilish bilan chegaralanib qolmay, balki uni ijtimoiy, madaniy, psixologik, hatto texnologik kontekstlarda ham o'rganmoqda. Bu esa milliy adabiyotimizni jahon miqyosida chuqurroq anglash va targ'ib etishda faoliyat olib bormoqda. Faqat bu bilan chegaralanib qolmay, sohaga doir yangicha termin va atamalarning yuzaga kelishi bilan tilshunoslik sohasida ham bir qator yangiliklarni olib kirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONI VA BOSHQA JANRLAR MUNOSABATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
2. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA IFODA ETILGAN MAROSIMLARDA ARXAİK EPOS XUSUSIYATLARI TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
3. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
4. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAİK-BADIIY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
5. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
6. SHARIPOVA, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONINI O'ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIİY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.
7. Baxshilloeyeva, S. M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA SUNNAT TO 'YI MAROSIMINING BADIİY TALQINI. *Научный Фокус*, 1(2), 1091-1095.

8. Baxshilloevna, S. M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONINI O'RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI. *Научный Фокус*, 1(2), 1096-1100.
9. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA'LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
10. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
11. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA NIKOH TO'YI URF-ODATLARI TASVIRI VA TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
12. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA NIKOH TO'YI URF-ODATLARI TASVIRI VA TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
13. Sharipova, M. (2020). O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
14. Sharipova, M. B., & Nozirova, M. J. Q. (2021). O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI. *Scientific progress*, 2(7), 1102-1108.
15. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1125-1129.
16. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
17. Sharipova, M. B., & Mirzayeva, X. N. (2021). XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress*, 2(7), 1135-1138.
18. Шарипова, М. Б., & Нейматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
19. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
20. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lim*.
21. Sharipova, M. B., & Shokirova, N. Z. Q. (2021). «ALPOMISH» DOSTONI–BADIY BARKAMOL ASAR. *Scientific progress*, 2(7), 1145-1148.
22. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
23. Шарипова, М. Б., & Хусаинова, З. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 106-108.
24. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).

25. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic “Alpomish”). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 46(46).
26. Sharipova, M. B., & G’afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.
27. Sharipova, M. (2023). O ‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA’LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 44(44).